

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-oktyabr

Raqamlar:


- 2018 yil yanvar-oktyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 3631,6 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlar o'sish sur'ati 143,7 % ni tashkil qildi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1961,2 ming.so'mni tashkil etdi.

Hozirgi vaqtida xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanish darajasi jamiyatning ilg'or rivojlanishining mezoniga aylandi.


Xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish va modernizatsiya qilish aholining turmush darajasini, investitsion muhitini, ishbilarmonlik muhitini va biznesni rivojlantirishni yaxshilaydi.

"2016 – 2020 yillarda xizmatlar sohasining rivojlantirish dasturi"ni amalga oshirilishi natijasida, 2018-yil yanvar-oktyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 3631,6 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12,6 % ga o'sdi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi, %



2018 yil yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'y'cha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %




- 1 Xizmatlar - jami
- 2 Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari
- 3 Moliyaviy xizmatlar
- 4 Transport xizmatlari
- 5 Yashash va ovqatlanish xizmatlari
- 6 Savdo xizmatlari
- 7 Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

- 8 Ta'lim sohasidagi xizmatlar
- 9 Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar
- 10 Ijara xizmatlari
- 11 Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar
- 12 Shaxsiy xizmatlar
- 13 Me'morchilik sohasidagi xizmatlar
- 14 Boshqa xizmatlar


2018 yil yanvar-oktyabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (43,7 %); me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (19,5 %); transport xizmatlari (15,4 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

**2018 yil yanvar-oktyabr oylarida ko'rsatilgan
bozor xizmatlarining ulushi, %**



Xizmatlar tarkibida eng katta ulush transport xizmatlari (jami xizmatlarning 27,8 %), savdo xizmatlari (25,3 %), moliyaviy xizmatlar (12,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (7,6 %) hissasiga to'g'ri keldi.

**2018 yil yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**



Eng yuqori bozor xizmatlari hajmi transport xizmatlari (1010305,9 mln.so'm), savdo xizmatlari (917905,7 mln.so'm), moliyaviy xizmatlar (469714,2 mln.so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (277689,0 mln.so'm), ta'lim sohasidagi xizmatlar (175802,8 mln.so'm) bo'yicha kuzatildi.